"Mintaqaviy klaster" tushunchasi ilk bor M. Enrayt[2] tomonidan taklif qilingan bo'lib, uning ishlarida bir-birlariga geografik yaqin bo'lgan firmalarning sanoat klasteri sifatida ta'riflangan. Shuningdek, u mintaqaviy klasterlarni iqtisodiyotning bitta yoki bir nechta yondosh tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan firmalarning geografik aglomeratsiyasi sifatida ham ta'riflagan.

Korxonalarining hududiy konsentratsiyasi, qoidaga ko'ra, muayyan iqtisodiy-geografik makondagi mavjud ustunliklari tufayli vujudga keladi. Bunda klaster ichida kuchli korxonalararo sog'lom raqobat vujudga kelib, klaster ishtirokchilari hisoblangan korxonalar, uning tashqarisida joylashgan korxonalar nisbatan iqtisodiy ustunliklarga ega bo'ladi.



Ta'kidlash joizki, klasterga nafaqat o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar, balki uning faoliyat ko'rsatishiga yordam beradigan tashkilotlar, ya'ni klasterning asosiy korxonalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydigan infratuzilma obyektlari ham kiradi.

Klaster ma'lum hududdagi har xil ko'lamli va har xil tarmoqqa mansub bo'lgan korxonalarni birlashtirib, ular mintaqada ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ish va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirishga xizmat qiladi. Ya'ni, ishlab chiqarish jarayoni bunday tashkil etilganida, mintaqa tarmoqlarining eng samarali faoliyat ko'rsatishiga erishiladi. Agrar mintaqaga to'g'risida so'z yuritilganida, agroklasterning samaradorligiga ko'pincha qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va qayta ishlash korxonalarining raqobatbardoshligi ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

L.G.Polbisyanning fikriga ko'ra, "o'sish nuqtasi" deb ataluvchi nuqtani aniqlash va uni qo'llab-quvvatlash lozim. Agrar mintaqadagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari joylashgan aholi punktlari, nasldor chorvachilik va urug'chilik, xususan g'alla urug'chiligi xo'jaliklari, reproduktiv chorvachilik korxonalari, ilmiy tadqiqot, o'quv-tajriba-ishlab chiqarish korxonalari "o'sish nuqtasi" bo'lishi mumkin[3].

Shunday qilib, faraz qilishimiz mumkinki, agrosanoat klasterlarining shakllantirish va rivojlantirishga qishloq xo'jaligining ixtisoslashganlik darajasi va mintaqadagi infratuzilma obyektlarining rivojlanganligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda malakatimizda "klaster" tushunchasi avvalgiga qaraganda keng qo'llanilmoqda. Klasterlar ma'lum hududdagi o'zaro iqtisodiy bog'liq korxonalar bo'libgina qolmasdan, yaxlit moslashuvchan mezo-iqtisodiy tizimlar hisoblanib, ular tarkibiga har xil mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar kiradi va mustahkam aloqlar bilan birlashadi hamda zarur hollarda umumiy maqsadlarga erishish uchun kooperatsiyalashadi.

Shuningdek, zamonaviy klasterlar ilm-fanning ishlab chiqarishga integratsiyalashuv jaryonlarini jadal-lashtirib, ularning samaradorligini bir necha marta oshiradi va mintaqa iqtisodiyotini qisqa vaqtda xo'jalik yuritish-ning yangicha agro-industrial darajasiga ko'taradi. Bundan tashqari, yangi ilmiy-texnik ishlanmalar agroklasterning tizimidagi barcha korxonalariga tarqatiladi. Bu birinchi navbatda, kichik va o'rta biznes korxonalarida o'z aksini topadi. Chunki ular agroklasterga kirmasdan ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga imkon topa oladilar.

Mintaqaviy agroklasterning o'ziga xos xususiyatlari ular tarkibida korxonalar faoliyatining kengligidir. Ko'pincha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning soni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalaridan yuqori bo'lib, yangi firmalarning klaster tarkibiga kirishini osonlashtiradi va o'z imkoniyatlarini agroklasterning tizimidagi raqobatda sinab ko'rishga imkon yaratadi.

Agroklasterning ichidagi korxonalarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarini mutlaq o'zaro aloqadorlik yoki ushbu korxonalarining birlashishi deb tushunish noto'g'ri. Bu jarayon juda qayishuvchan va agroklasterning maqsadlariga moslashadi. Bunda agroklasterning ichidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar korxonalar hamkorlikda faoliyat ko'rsatishidan sinergetik samara keltirib, u mazkur korxonalar alohida faoliyat ko'rsatganlarida olingan samalari yig'indisidan yuqori bo'ladi.

Korxonalarining agroklasterning ichidagi barcha o'zaro iqtisodiy munosabatlari barchasi uchun shaffof va barqaror bo'lib, bu ular faoliyatidagi risklarni sezilarli darajada pasaytiradi. Bu agroklasterning ishtirokchilari hisoblangan korxonalarining o'zlariga ishonchini mustahkamlaydi va o'zaro iqtisodiy munosabatlarga qo'rqmasdan kirishishlariga imkon yaratadi.

I.P. Vaskoning[4] fikricha, umuman klaster, xususan g'allachilik klasteri ham, moddiy va nomoddiy mulklar obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqning o'ziga xos konfiguratsiyasini shakllantirib, ulardan maksimal darajada samarali foydalanishga imkon yaratadi. Mulkiy huquqning bunday o'ziga xos konfiguratsiyasi deganda, masalan, texnologiyalar tranferti, ya'ni bitta sohadan boshqasiga ko'chirilishida mulkchilikning yangi turini shakllantiradi. Klasterlar mana shunday transfertlar uchun sharoitlar yaratadi. Chunki, ilm-fanni, loyiha-konstruktorlik ishlanmalarini va yangi yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni uyg'unlashtirib, intellektual salohiyatni amaliyotga yo'natiradigan o'ziga xos bilimlar o'chog'i shakllanadi.

Klasterlarga ITM, OTM, O'MTM va KHMlarining kiritilishi mintaqada innovatsiyalarni joriy etishga ko'maklashadi. Jamiyat va tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan innovatsiyalar esa, investitsiyalar jalb qilinishi rivojlantirib, agroklasterning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Klasterlarga investitsiyalarning keng jalb qilinishi mintaqada (hudud) rivojlanishida sinergetik samarani ta'minlaydi. Jumladan, bir birlariga ta'sir ko'rsatadigan yondash tarmoqlarning korxonalariga investitsiyalar (sarmoya qo'yilishi), mahsulot hajmi va sifatining yaxshilanishi, mehnat unumdorligining o'sishi va samaradorlikning oshishi ta'minlanadi.

Bulardan tashqari, mintaqada (hudud)larda tashkil etilayotgan klasterlar keng ko'lamli innovatsion loyihalarni, jumladan ustuvor milliy loyihalarni ham, amalga oshirishga ko'maklashadi.

G'allachilik klasterining faoliyati ikkita asosiy qoidaga tayanadi: hududiy jihatdan alohidalashganlik va klaster tarkibiga kiruvchi yakuniy mahsulot ishlab chiqarishgacha barcha jarayonlardan manfaatdor o'zaro bog'liq bo'lgan har xil tarmoq korxonalari o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi.



G'allachilik klasteri ishtirokchilari tarkibiga muayyan mintaqa(hudud)da quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar kirishi mumkin: qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalari (fermer, dehqon va b. xo'jaliklari); qishloq xo'jalik mashinasozligi korxonalari; uyg'unlashgan agrosanoat kompleks(korporatsiya)lari; konsalting tashkilotlari; oziq-ovqat sanoatining qayta ishlash korxonalari; OTMlar; ITMlar; texnikumlar; kollejlilar va kasb-hunar maktablari; moliya institutlari; mahalliy hokimiyat organlari va b.

Agrar sohani klasterlash, ya'ni agroklasterni shakllantirish jarayoniga turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan ayrimlarni ko'rib chiqamiz. Jumladan, O.R.Fayziev o'z tadqiqotlarida moyli ekinlar mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish bo'yicha agroklasterni tuzilmasini shakllantirishning besh bosqichli algoritmini ishlab chiqilgan:

“1-bosqich. Quyi tarmoq ahamiyatligini ifodalovchi integral ko'rsatkichni aniqlash;

2-bosqich. Quyi tarmoq raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichini hisoblash;

3-bosqich. Quyi tarmoq ahamiyatligi va raqobatbardoshligi matritsasini tuzish; 4-bosqich. Hududlar chegarasini aniqlash;

5-bosqich. Tanlangan hududlarning o'rtacha miqdorlarini hisoblash”[5, 13, 14].

J.M.Roziqov klaster ta'rifiga meva-sabzavotchilik tarmog'i xususiyatlaridan kelib chiqib yondashga: “Meva-sabzavotchilik klasteri - qishloq xo'jaligida organik, sifatli meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchi innovatsion bog'lam, ya'ni mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, eksport qilish va agrar sektor korxonalar bilan sanoatlashgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida hamkorlik asosida faoliyat yurituvchi subyektlar birlashuvidir”[6].

A.K.Aytmibetov Qorqalpog'iston Respublikasining shimoliy mintaqasida “Mintaqaviy ko'l-hovuz baliqchiligi klasteri”ni shakllantirishning maqsadga muvofiqligini asoslagan. Shunga mos ravishda, dissertatsiyada mazkur klasterni shakllantirish bosqichlari, uning namunaviy tashkiliy tuzilmasi, uning kiritilish mumkin bo'lgan tumanlar tavsiya etilgan[7].

Ye.V.Kurkudinova mintaqaviy agroklasterni shakllantirish algoritmini quyidagicha 4 ta bosqichga tabaqalashtirishni taklif qilgan[8]:

1-tayyorgarlik bosqichi: Bunda agroklasterni modelining umumslubiy ishlanmasi taxmin qilinadi. Ushbu bosqichdagi tadbirlarni amalga oshirishda agroklasterning yo'nalishini aniqlashtirish, ishchi guruhini tuzish, bo'lg'usi Agroklasterni kengashining tarkibini aniqlash, agroklasterning missiyasi va faoliyat maqsadi ishlab chiqiladi, normativ-huquqiy baza shakllantiriladi;

2-tahliliy bosqich: Bu bosqichda agroklasterni rivojlantirish uchun tadqiqotlar o'tkazishni, shuningdek mintaqadagi raqobatlashuvchi salohiyatli agroklasterni aniqlash nazarda tutuvchi tahlil ishlari amalga oshiriladi. Xususan, bu bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- agroklasterni yadrosini tashkil etishi mumkin bo'lgan mintaqadagi ayrim korxonalarining o'lchamlari aniqlanadi;

- agroklasterning hududi (chegaralari) aniqlanadi;

- klaster ichidagi uning rivojlanishini belgilovchi aloqalar aniqlanadi (unga ilmiy va moliyaviy blok, kadr ta'minoti bloki kiritiladi);

- klaster modelining strategik tahlili (SWOT tahlil) o'tkaziladi.

3-tashkiliy-iqtisodiy bosqich: Klaster modeli shakllantirilib, klasterning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, ularga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlarini ham kiritish mumkin. Bu bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mintaqada agroklasterni ishtirokchilari hamkorlikdagi faoliyatining miqyoslarini aniqlash;

- agroklasterning har bir tuzilmasiga funksiyalarini biriktirish;

- agroklasterni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish (maqsadlar daraxti, rivojlantirish ssenariyalari va vektorlarini tuzish);

- agroklasterni rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, unda aniqlangan rivojlantirish vektorlarini amalga oshirishning normativ-huquqiy va tashkiliy-xo'jalik mexanizmlarini nazarda tutish.

4-klaster faoliyatining samaradorligini baholash bosqichi: To'rtinchi, yakunlovchi bosqichda klaster baqaror faoliyat ko'rsatish modelini va istiqbolli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek barcha faoliyat segmentlari bo'yicha layoqatligini prognozlash, sinergetik samara va mintaqani strategik rivojlantirishga hissa qo'shishi nuqtai nazaridan klaster samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

I.S.Ferova fikriga ko'ra, mintaqaviy klasterni shakllantirish algoritmi 3 ta bosqichda amalga oshirilishini nazarda tutadi[9]:

1- dastlabki bosqich: Unda klasterlash salohiyati baholanadi va klaster loyihalarini amalga oshirish dasturi ishlab chiqiladi;

2-asosiy bosqich: mintaqada klasterlash jarayonlarini faollashtirish va klaster ishtirokchilarining tarkibini aniqlashdan iborat;

3-yakunlovchi bosqich: iqtisodiy o'sishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar asosida klaster faoliyatini baholash ko'zda tutiladi.



G.R. Xasaev, Yu.V. Mixeev, M.I. Umanskiy[10] klasterini shakllantirishni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1-bosqich: salohiyatli ishtirokchilarni moslashtirish va motivlash. Bu bosqichda klasterning bo'lg'usi ishtirokchilari uning tashkil etishning konsepsiyasi va salohiyatli ishtirokchilari, mintaqaviy hokimiyat nazoratidagi barcha ishlar bilan tanishadi.

2-bosqich: klaster strategiyasini shakllantirish. Bu bosqichda hohlovchi korxonalar hamkorlik to'g'risida qaror qabul qilib, qisqa muddatli hamkorlik to'g'risida bitim tuziladi.

3-bosqich: dastlabki(pilot) loyiha ishlab chiqish. Dastlabki(pilot) yaratilib, yangidan barpo qilinayotgan tuzilmaning yuridik maqomi va tashkiliy prinsiplari aniqlanadi.

4-bosqich: klasterning strategiyasini ishlab chiqish. Klasterda ixtisoslashganlikning zarur darajasini va mehnat taqsimotining samarali darajasini aniqlash imkonini beradigan strategiya shakllantiriladi. Klasterning brendi yaratilib, tuzilmaning yangibo'g'inlari tashkil etiladi, resurlar birlashtiriladi va texnologiyalarni joriy etish amalga oshiriladi.

5-bosqich: o'z-o'zini tartibga solish. Klasterning o'z-o'zini ta'minlashi va tartiga solishi masalalari bo'yicha uning faoliyatiga davlat aralashuvi eng past darajaga tushiriladi.

Ye.A. Bogdanova fikriga ko'ra, agroklasterni tashkil etish beshta bosqichdan o'tadi: tayyorgarlik, tahlil, strategik, joriy etish va istiqbolli rivojlanishni rejalashtirish[11].

G'allachilik klasterining yadrosini don ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash korxonalari tashkil etib, uning atrofida infratuzilma tashkilotlari to'planadi. Bizning fikrimizcha, mintaqaviy g'allachilik klasteri ham, boshqa mintaqaviy agroklasterni kabi, shakllanish jarayonida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1-tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda bo'lg'usi klasterning maqsadi va faoliyat ko'rsatish konsepsiyasini aniqlash, faoliyatning texnologik "zanjiri"ning xususiyatlaridan, ularning o'zaro ta'sir ko'rsatish prinsiplari va klasterning tashkiliy-huquqiy asoslaridan kelib chiqqan holda, uning salohiyatli ishtirokchilarini va chegaralarini aniqlash ishlari amalga oshiriladi.

2-asosiy bosqich. Klasterning barcha mexanizmlarini ishga tushirish, ishtirokchi-korxonalarining o'zaro aloqalarini aprotatsiyadan o'tkazish, ularning barqarorligini ratsionalligini tekshirish.

3-nazorat bosqichi. Klasterning muvofiqlashtiruvchi markazi va mahalliy hokimiyat organlarining mutasaddilari tomonidan jarayonlarning monitoring qilinishi, joriy muammolarni hal etish va qo'llab-quvvatlash maqsadida klasterning "og'riqli" nuqtalaridagi ishlarga aralashish.

4-baholash bosqichi. Mintaqaviy klaster faoliyatining samaradorligini baholash va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash hamda safarbar etish[12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika; ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy umumilmiy metodlardan foydalanildi. Umumilmiy empirik metodlardan esa, ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuza-tish va retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy g'allachilik klasterini rivojlantirish konsepsiyasini va dasturini ishlab chiqishni, fikrimizcha, viloyat (tuman)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi bilan muvofiqlashtirish zarur. G'allachilik klasterini rivojlantirishning muhim jihati uning ichidagi ishtirokchi-korxonalar o'rtasidagi raqobatning jadal rivojlanishi hisoblanadi. Ularning raqobatbardoshligining o'sishi klasterning tez rivojlanishiga imkon beradi va mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoning yaxshilanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, mintaqada g'allachilik quyi tarmog'ini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish vazifalarini hal etishning zamonaviy metodi g'allachilik klasterlarini tashkil etishdan iborat bo'lib, uning hududida moliyaviy, texnologik, innovatsion va mehnat resurslarini tizimli jamlashga erishiladi. Ushbu resurslardan oqilona va samarali foydalanish butun mintaqaning va xususan g'allachilik quyi tarmog'ining raqobatbardoshligini hamda iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi.

G'allachilik klasteri faoliyatining xususiyatlarini tadqiq qilish va uni rivojlantirish samaradorligini baholash uchun, ishtirokchi-korxonalar tarkibi, faoliyati, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslari hamda istiqbolini puxta o'rganish zarur. Ilmiy va o'quv-uslubiy manbalarda mazkur masala, xususan g'allachilik klasterlarining tarkibi bo'yicha yagona yondashuv yo'q.

Hozircha sobiq "O'zdonmahsulot" AJning mintaqalardagi bo'limlari va ularning tizimidagi don tayyorlash korxonalari negizida tashkil etilgan g'allachilik klasteri deb atalayotgan tuzilmalar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari ishtirokchilar tarkibi va faoliyat maqsadlari bo'yicha g'allachilik klasteriga o'xshash. Lekin ko'pchiligi tarkiban ham, iqtisodiy mazmuni jihatdan ham g'allachilik klasterining mezonlariga javob bermaydi.



Ilmiy, o'quv-uslubiy va normativ manbalarni sharhlash natijalari shuni tasdiqladiki, g'allachilik klasterini alohida ishlab chiqarish obyekti sifatida ajratish metodologiyasi, unga kiruvchi barcha tarmoqlar va funksional bo'linmalarning mutanosib va muvofiqlashtirilgan holda rivojlanishini ta'minlaydigan ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslanishidan iborat.

Shunday qilib, don mahsulotlari korxonalaridan g'allachilik klasterining asosiy farqlari quyidagilardan iborat: g'allachilik klasteri muvofiqlashtiruvchi markazi bilan uyg'unlashgan mukammal tashkiliy tuzilmasiga ega, ishtirokchi-korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatdorlik va teng huquqlikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar o'rnatiladi, tashkil etishning asosiy bosqichlari davlat, xususan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, moliya-xo'jalik faoliyati natijalaridan manfaatdorlikka asoslanadi.

Agrar sohada g'allachilik klasterlarini tashkil etishga ehtiyoj erkin raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarish miqyosining ko'payishi va faoliyatning tabaqalanishi, shuningdek ijtimoiy mehnat taqsimotining kuchayishi sabab bo'lmoqda. So'nggi holat mustaqil tarmoqlar va tashkilotlarni vujudga keltirib, ular esa tashqi muhit ta'siriga bog'liq. Bunga hududiy joylashuv, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va hokazolar kiradi.

Har qanday klaster mintaqa aholisining ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulotlar tayyorlashdan to sotish-gacha bo'lgan har xil faoliyat turlarini amalga oshiradi. Xususan, g'allachilik klasterining tarkibini, uning butun agrosanoat majmuiga munosabati, shuningdek tuzilmasi va tarkibiy elementlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar pozitsiyasidan ko'rib chiqish zarur. G'allachilik klasterining tarkibini unga faqat g'allachilik quyi tarmog'ining maqsadini amalga oshirishga daxldor tarmoqlar va korxonalarni qo'shgan holda aniqlash mumkin. Shunday qilib, mintaqaviy g'allachilik klasterining tarkibi har doim aniq va tarkibiy elementlari funksional o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

Shunday qilib, mintaqaviy g'allachilik klasteri tushunchasi va uning tarkibini o'rganish natijalariga tayanib, uni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: mintaqaviy g'allachilik klasteri – muayyan hududda joylashgan agrosanoat tuzilmasi bo'lib, o'z moliya-xo'jalik faoliyatini mutlaq mustaqillik asosida amalga oshiradi, uning pirovard maqsadi jamiyatning muayyan oziq-ovqat mahsulotlari yoki qishloq xo'jalik xom ashyosidan tayyorlanadigan boshqa iste'mol buyumlariga bo'lgan talablarini qondiruvchi uyg'unlashgan tuzilma.

Ushbu ta'rifni g'allachilik tarmog'ining tashkiliy va ishlab chiqarish-texnologik xususiyatlarini ham mujasamlashtirib, yanada batafsilroq tarzda mualliflik ta'rifini taklif qilamiz: Mintaqaviy g'allachilik klasteri – bu ma'lum mintaqa (hudud)da joylashgan, har xil mulkchilik hamda tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar va tashkilotlar majmuasi bo'lib, ular g'allani ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotish bo'yicha yagona texnologik tizimga birlashadi, mutlaq xo'jalik mustaqilligi shartlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi, umumiy muvofiqlashtiruvchi markaziga ega bo'ladi hamda uning asosiy maqsadi g'alla, uni qayta ishlashdan olingan asosiy va qo'shimcha mahsulotlar bilan jamiyat ehtiyojini samarali qondirish orqali butun quyi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Ushbu mualliflik ta'rifimizdan mintaqaviy g'allachilik klasterining asosiy va xususiy funksiyalarini keltirib chiqaramiz. Mintaqaviy g'allachilik klasterining asosiy funksiyasi mintaqa aholisining g'allachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini, ish bilan bandligi va hayot sifatini to'laroq ta'minlashdan iborat. G'allachilik klasterining muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa xususiy funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

g'allachilik quyi tarmog'i uchun mintaqada g'alla va uni qayta ishlash mahsulotlarining muvozanatlashgan bozorini yaratish;

mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, mamlakat ichidagi va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishni rag'batlantirish;

mintaqaviy g'allachilik klasterining barcha sohalarini maksimal darajada ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlash;

g'allani ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishning yagona texnologik tizimida yo'qotishlarni kamaytirish.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Ko'rinib turibdiki, g'allachilik xo'jaliklari faoliyatining samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarishning har xil tarmoqlariga mansub korxonalar bilan iqtisodiy munosabatlariga asoslanadi. Albatta, bunda mintaqadagi g'allachilik klasterining yadrosini g'alla ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar tashkil etishi lozim. Ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jaligida g'alla ekinlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlar kiradi. Saqlash korxonalari – bu elevator xo'jaliklari, o'zlarining g'alla saqlash quvvatlariga ega bo'lgan donni qayta ishlash korxonalari va boshqalar. Qayta ishlash korxonalariga esa un, makaron, non va konditer mahsulotlari hamda omuxta yem ishlab chiqarish korxonalari kiradi.



G'allachilik klasterining tarkibiga ta'minot va xizmat ko'rsatish, transport-logistika, sotish, axborot-kon-salting xizmati hamda boshqa infratuzilma korxonalari ham kiradi. Ularning barchasining yagona va bir maromda faoliyat ko'rsatishini, butun g'allachilik klasteri faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishni ta'minlay-digan markaz shakllantirilishi lozim.

G'allachilik klasteri tizimida tashkil etiladigan bunday markaz butun tizim faoliyatini (masalan, moliyaviy, moddiy, axborot va innovatsion resurslarni samarali boshqarish doirasida) muvofiqlashtirish, farmoyish-ijro inti-zomi va nazorat-tahlil funksiyalarini ta'minlashi zarur. Axborot-tahlil markazining uzluksiz hamda malakali ish-lashi samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning garovi hisoblanadi.

Mutasaddi mahalliy hokimiyat organlari mintaqada g'allachilik klasterining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi lozim. Ammo bu organlar g'allachilik klasteri tizimida kechayotgan iqtisodiy jara-yonlarga aralashmasdan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak. Shuningdek, jamoat birlashmalari va uyushmalar ham g'allachilik klasteri faoliyatiga yordam ko'rsatishi hamda kuzatib borishi zarur.

G'allachilik klasterining barqaror rivojlanishida OTM, ITM, o'rta maxsus va kasb-hunar maktablarining o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Ular innovatsiyalar, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish hamda kadr ta'minotini amalga oshiradi.

Transport-logistika infratuzilmasi mahsulotlar va boshqa tovar-moddiy qiymatliklarni g'allachilik klasterining ichida va uning tashqarisiga kamxarj hamda yo'qotishlarsiz tashishni ta'minlash uchun zarur.

Savdo-ta'minot va moliyaviy infratuzilmasi sotish nuqtalari o'rtasida baho va baho bilan bog'liq bo'lmagan raqobat muhitini yaratadi, shuningdek, korxonalarining moliyaviy oqimlarini monitoring hamda nazorat qilishni ta'minlaydi. Ushbu korxonalar g'allani klaster tizimining ichida (omuxta-yem ishlab chiqaruvchi zavodlarga; un va ushoq ishlab chiqaruvchi zavodlarga; non va non mahsulotlari ishlab chiqarish uchun novvoyxona va kon-diter fabrikalariga, spirt va pivo ishlab chiqaruvchi korxonalariga va b.) sotish kabi, chetga eksport qilish bilan ham shug'ullanadilar.

Albatta, yetishtirilgan g'allaning bir qismi ishlab chiqaruvchilarning o'zlarida (urug'lik va sug'urta fondi, ish haqi o'rniga to'lov, chorva mollari va parrandalarni oziqlantirish uchun) qoldiriladi.

Xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmasi – bu har qanday klasterning tayanch infratuzilmasi bo'lib, xususan, g'allachilik klasterida asosiy ishlab chiqarish vositalarini (bino va inshootlar, omborxonalar, elevatorlar, qishloq xo'jalik texnikalari va h.k.) tashkil etish, ularga xizmat ko'rsatish, ular o'rtasidagi texnik va texnologik bog'liq-liklarni o'rnatishda ishtirok etadi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz shuni tasdiqladiki, mintaqa miqyosida g'allachilik quyi tarmog'ini klasterlash, ya'ni g'allachilik klasterini shakllantirish uchun obyektiv shart-sharoitlar va zarurat mavjud. Bunday tizim butun g'allachilik quyi tarmog'i va uning bilan bog'liq bo'lgan yondosh tarmoqlar hamda ishlab chiqarishlarni ilmiy asosda muvofiqlashtiruvchi markaz yordamida faoliyat ko'rsatishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-aprel 2019-yil PF-5708-sonli Farmoni "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". www.lex.uz
2. Enright M.J., Roberts B.H. Regional Clustering in Australia // Australian Journal of Management, 2001. Vol. 26. pp. 65-86.
3. Полбицына Л.Г. Формирование кластеров в АПК как эффективный инструмент регионального развития / Л.Г. Полбицына // Научный вестник УрАГС, 2008, № 2.
4. Васью И.П. Теоретические аспекты формирования региональных агрокластеров // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, 2012, № 2, С. 136-141.
5. Fayziyev O.R. Moyli ekinlar mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022. - 56 b.
6. Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishni takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023. - 12-19 b.
7. Ayitimbetov A.K. Baliqchilik tarmog'i samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023. - 19-20 b.
8. Куркудинова Е.В. К вопросу о роли агропромышленного кластера в системе региональной экономики / Е.В. Куркудинова // Электронный научный журнал "Управление экономическими системами" Отраслевая экономика, 2011. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.uecs.ru/uecs-32-322011/item/548-2011-08-08-11-19-13>.
9. Ферова И.С. Кластерный подход: от концепции к промышленной политике региона: монография / И.С. Ферова. Красноярск: Краснояр. гос. ун-т, 2005. - 105 с.
10. Хасаев Г.Р., Михеев Ю.В., Уманский М.И. Кластер как современный инструмент повышения конкурентоспособности региона. Через партнерство - к будущему // Компас промышленной реструктуризации, 2004, № 3 (ч. 1, 2).
11. Богданова Е.А. Стратегия формирования агропромышленного кластера региона [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.journal.vlsu.ru/index>.



12. Мельников А.Б., Саидов А.А., Черненко А.А. Особенности формирования и функционирования зернового кластера региона // Общество и право, 2013, № 4 (46), 292-296 с.
13. Yunusov I., Sangirova U., Ahmedov U., Fayziyev O., Kholiyorov U. Clustering of Agriculture in the Republic of Uzbekistan. April 2023, E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) AQUACULTURE 2022.
14. Dasmuratov R.D., Fayziyev O.R. Moyli ekinlar mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligi. Monografiya. Toshkent: "Alfraganus universiteti", 2024. - 232 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

